

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

OKTYABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-0-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 40 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 2-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-0-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Qirg'izov Baxtiyor

BURHONIDDIN MARG'INONIY HAZRATLARI NOMLARI BILAN BOG'LIQ FARG'ONA
VILOYATIDAGI YODGORLIK VA ZIYORATGOHLAR 4-9

IQTISODIYOT FANLARI

Obidova Intizor

SANOAT KORXONALARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT
SIYOSATI 10-19

FILOLOGIYA FANLARI

Xoldorova Xulkaroy

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DINIY MATNLAR USLUBINING EKSTRALINGVITIK
XUSUSIYATLARI 20-23

YURIDIK FANLARI

Axmedov Axadulla

MADANIY MEROS SOHASIDAGI MUNOSABATLARNING KONSTITUTSIYAVIY – HUQUQIY
ASOSLARI TAHLILI 24-30

Nurmamatova Noila

KONSTITUTSIYAVIY SUDLARDA VAKILLIK INSTITUTINING O'RNI VA XORIJIY DAVLATLAR
TAJRIBASI 31-33

Бекимбетова Тумарис

ГАРМОНИЗАЦИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА С ПРАВОМ ЕВРОПЕЙСКОГО
СОЮЗА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ 34-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIMIDA PISA USLUBIDAGI TOPSHIRIQLAR ORQALI REAL HAYOTGA
YO'NALTIRILGAN BILIMLAR BERISH 37-39

FILOLOGIYA FANLARI

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DINIY MATNLAR USLUBINING EKSTRALINGVITIK XUSUSIYATLARI

Xoldorova Xulkaroy Muzaffar qizi

Stajor o'qituvchi, QMU, Ingliz tilshunosligi kafedrası

Email: xoldorovaxulkaroy@gmail.com

Tel: +998 88 692 89 00

Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya. Ushbu maqola lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan boyitilgan har qanday matn uslubini belgilashda muhim ahamiyatga ega, shuningdek, matnni stilistik tahlil qilishda ekstralingvistik omillarni aniqlash zarurdir. Bundan tashqari, o'zbek va ingliz diniy matnlarining ekstralingvistik xususiyatlarini ochishga harakat qilingan. Diniy matnlarning asosiy ekstralingvistik tamoyillari aniq misollar bilan ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Funktsional stilistika, ekstralingvistik, diniy matn, monologik nutq.

EXTRALINGUISTIC FEATURES OF THE STYLE OF RELIGIOUS TEXTS IN UZBEK AND ENGLISH

Kholdorova Khulkaroy Muzaffar qizi

The Trainee teacher of Karakalpak State University

Annotation. This article deals with linguistic and extralinguistic factors that are important in designating the style of any text. As well as that, it is necessary to identify extralinguistic factors in the stylistic analysis of the text. On top of that it has been attempted to open extralinguistic features of Uzbek and English religious texts in this article. The main extralinguistic principles of religious texts are scientifically substantiated with concrete examples.

Key words: Functional stylistics, extralinguistic, religious text monologic speech.

Tilshunoslikda har qanday uslubdagi matnning lingvistik va ekstralingvistik jihatlarini tadqiq qilish juda muhim masala hisoblanadi. Ma'lum bir tekstni stilistik jihatdan ekstralingvistik faktorlarini aniqlashtirish juda zarurdir. Bu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi diniy matnlarning o'ziga xos bo'lgan ekstralingvistik prinsiplarini ilmiy jihatdan misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Nutq faoliyatida uchraydigan ekstralingvistik omillar lingvistik omillardan qolishmaydigan darajada nutq uslublarini belgilashda muhim xizmat qiluvchi jihatdir. Misol uchun rasmiy matnlarda uchraydigan rasmiylik, uning mazmuni faqatgina ma'lum bir qatlam, ya'ni soxa mutaxassislariga tushunarli bo'lish zarurati ana shu ekstralingvistik omil sanaladi. Shuningdek S.Karimov o'zining "O'zbek tilining funksional stilistikasi" asarida "Rasmiy uslubda har bir matn hujjat mazmun mohiyatidan kelib chiqib, ma'lum reglament, ya'ni tartib va qoidalar asosida shakllantiriladi. Shu tarzda ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli harakterdagi rasmiy hujjatlarining har birining bayon etish qolipi, standard, shablon, abzastlar va jumlar vujudga keladi. Yoki ilmiy matnlarning aniqlik va dalillarga asoslanganligi bu uslub uchun ekstralingvistik omil hisoblanadi. Publisistik matn ham o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lib, ularning ijtimoiy-

siyosiy , ma'naviy-ma'rifiy , madaniy , sport kabi soxalarga yo'naltirilganligi oziga xos omilga sabab bo'la oladi,Shuningdek badiiy uslub va so'zlashuv uslubining ham har birining o'ziga xos tili tinglovchiga ma'lumot yetkazishda o'zining boshqa uslublardan ajralib turadigan usuli borligi bilan farqlidir.[4;25b]

Xar bir funksional uslublarning o'ziga xos ekstralingvistik xususiyatlari bo'lgani kabi bu jihatlar diniy matnlar uslubida ham yaqqol anglashilib turadi Diniy matnlarda aniqlik yaqqol ko'rinib turadi. Bu o'rinda diniy matnlarning ikki xil shakli bo'lib og'zaki hamda yozma shaklda namoyon bo'ladilar.Muqaddas dinimiz Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda keltirilgan oyatlar,suralar va Muhammad (sallallohu alayhi vasallam) aytgan so'zlari ya'ni hadislarida diniy matnlardagi yozma shakli o'z aksini topadi.

Bulardan og'zaki shaklida ekstralingvistik omillarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun og'zaki nutqiy matn aynan ma'lum bir auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lib bu nutq shakliga oldindan tayyorgarlik ko'riladi. Diniy matn mualliflari din peshvolari bo'lib, ular diniy ta'limot soxasida maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan ulamolar, diniy va o'rta mahsus bilim yurtlaridagi professor o'qituvchilar va mudarrisleri shular kabilardir. Eng muhim ekstralingvistik omil esa diniy matnlar uchun mo'ljallangan auditoriya bo'lib hisoblanadi. Bu auditoriya,asosan, masjidlar diniy mazmundagi teleradio ko'rsatuvlari va eshittirishlari, diniy marosimlar suxbatlar, respublikamizdagi diniy oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, ta'limiy ma'rifiy markazlari ham ana shu auditoriya sirasiga kiradi.

Diniy matn mualliflari odatda din peshvolari maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan ulamolardir. Ular odatda maxsus formada boshlariga salla o'ragan ustlariga masus to'n kiygan bo'1adi Bu omillar esa o'z navbatida og'zaki nutqning samaradorligini belgilab beradi. Bunday diniy matnlarning ekstralingvistik omillari ingliz tilida ham og'zaki shakldagi ko'rinishi ahamiyatlidir.xristian cherkovlaridagi har yakshanba o'tkaziladigan diniy ma'ruzalar, suxbatlar, keying paytlarda keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlardagi monologik xususiyatga ega bo'lgan video roliklar va diniy mavzuda kuylangan qo'shiqlar bularning yaqqol misolidir.

Odatda diniy ma'ruzalar monologik harakterga ega bo'lib , unga oldindan tayyorgarlik ko'riladi.Monologik nutq gender xususiyatlariga ham ega bo'lib, bu haqida mashxur ingliz tilshunosi David Crystal o'zining 'Language in church' nomli maqolasida diniy matnlardagi gender harakteri haqida to'xtalib o'tadi 'Religious language was just as sexist as any other variety- in fact, it was said to be more so, on account of its reliance on a male – dominated tradition rooted in the patriarchal societies of biblical times.The evidence for this view rests mainly on the repeated references to *mankind, father, Lord, Jesus saving all men* and the many other masculine terms which have been devised to express the personal basis of the relationship between God and humanity.[2;570-572b]('Ya'ni Diniy til har xil xilma-xillik singari jins bilan bog'liqdir, aslida bu, Injil davridagi patriarxal jamiyatlarda ildiz otgan erkaklar hukmronlik qiladigan urf-odatlariga tayanishi sababli ko'proq aytilgan edi. Xudo va insoniyat o'rtasidagi munosabatlarning shaxsiy asoslarini ifoda etish uchun o'ylab topilgan insoniyatni qutqarish, odamlarni qutqarish va boshqa ko'plab erkakcha atamalar haqida insoniyatga, ota, Rabbimiz, Isoga takroran murojaat qilish.)

Ma'ruza jarayonida albatta xujjat va dalillarga tayangan holda gapiriladi. Bunday holatda ma'ruzachi avval bir muammo va uning yechimini Qur'oni Karimda keltirilgan sura yoki oyatni

o'zining asl tili bilan arab tilida qiroat qilib keyin uning bayonini o'zbek tilida izohlab beradi va saxix hadislardan misol keltirish orqali o'z nutqini aniqliligini va haqqoniyligini isbotlaydi

Bu muqaddas manbalardan foydalanishning o'z tartib qoidalari bor. Masalan, Alloh yoki ining rasuli nomlarini o'zlari istagan yo'lda aytish diniy odob nuqtai nazaridan joyiz emas. Ularning nomlari qat'iy qoida va tartib bilan tilga olinadi. Misol uchun, *Alloh subhana va taolo, Muhammad sallolohu alayhi va sallam, Muhammad Mustafo sallolohu alayhi va sallam, Allohning rasuli, Rasuli akram* bunday diniy terminlar tilshunoslikda teologiya bo'limida o'rganadi. O'z navbatida 'teologiya' haqida to'xtalib o'tsak. Teologiya (yunoncha theos- xudo va logiya fan)- xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy ta'limotlar majmuidir. Xudo shaxsan o'zini vahiy orqali kishilarga ma'lum qiladi degan konsepsiyaga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar teologiyaning asosiy manbasi hisoblanadi. Teologiya islomda ilohiyot, kalom atamallari bilan ham ataladi.[1;]

Bundan tashqari nutqiy vaziyatdan kelib chiqib uning ommaviy harakterini hisobga olib, diniy nutq qat'iy o'zbek adabiy tili orfografik me'yorlari doirasida talaffuz qilish talab etiladi. Subyektivizm va shevachilikka yo'l qo'yilmaydi, yana bir taqiq qo'yilgan narsa shundaki, Allohning kalomini buzib talaffuz qilinmaydi. Lekin shu paytga qadar ayrim so'zlardagi 'a' tovushining 'o' shaklida talaffuz qilish yoki aksincha o-a almashinuvi holatlari kuzatilgan misol uchun Olloh-Alloh, Rahmon-Rahman, Rahim-Rohim, Rasul-Rosul tarzida talaffuz qilinmoqda.

Diniy matn ham ommaviy kommunikatsiyaning bir ko'rinishidir bunda nutqiy akt kontakt va distant holatda bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan ifodaning asosiy vositasi sifatida tovush akustikasiga, nutqning jarangdor va ta'sirli bo'lishiga e'tabor qaratiladi. Muloqot jarayonida alohida nutqning shakli adresant va adresat munosabati yuzaga keladi. Biri faol ikkinchisi esa passiv pozitsiyada bo'ladi, Ammo adresatda ham fikrlash jarayoni davom etib, psixologik aloqa va bog'langanlik sezilib turadi. Bu jarayon diniy va dunyoviy yo'nalishlarda mukammal bilimga, dunyoqarash va malakaga, tajriba va salohiyatga ega bo'lgan ulamolar faoliyatida mujassamlashgan murakkab jarayondir. Bu o'rinda diniy nutq mualliflarining intellektual salohiyatini chetlab o'tish aslo mumkin emas. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Fozil qori Sobirov, Anvar qori Tursunovlarning nutqiy mahoratlari buning yaqqol dalilidir.

Kitobiy nutqning publitsistik, badiiy uslublarga xos jihatlarini olib bo'lmagani kabi, diniy nutq uchun ham so'zlashuv uslubining muomala- maishiy, oddiy nut shakllaridan foydalanib bo'lmaydi. Oraliq pozitsiyani tutadi.

Mana shu ekstralingvistik shart- sharoitlar diniy matnlarning og'zaki shaklida tildan foydalanishning o'ziga xos me'yorlari, binobarin, o'ziga xos uslubi borligini tasdiqlaydi va uni o'zbek va ingliz tilidagi boshqa vazifaviy uslublar me'yorlaridan jiddiy farqlaydi.

Shuni aytib o'tish joizki, diniy targ'ibotning maqsadi bu – ma'naviy ma'rifiy dunyoqarashni yuksaltirishdir. Ayniqsa bugungi globallashtirilgan dunyoda diniy bo'shliqning paydo bo'lishi, hali muqaddas dinimizni chuqur anglab yetmagan yoshlar orasi turli xil ekstrimistik teroristik guruhlariga ergashib ketishi xavfi mavjud. Bu o'rinda diniy targ'ibotlar jamiyat farovonligi yo'lida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa shuki, o'zbek va ingliz matnlar tizimida diniy matnlar ham o'z o'rnini maqomiga ega. Uning shakllanishidagi lingvistik omillar ham xuddi ekstralingvistik omillar bilan bir qatorda muhim hisoblanib, ushbu mazmundagi matnlarning o'z bayon va ifoda usullari yuzaga

kelganligini tasdiqlaydi. Asrlar davomida sayqal topgan o'z ifoda uslubiga ega Bu esa tilning funksional uslublari tizimidan joy olishiga ishonchli asos bo'la oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdelhamid Elewa ' Features of translating religious texts' Journal of translation 2014.
2. David Crystal 1985 Language in Church The Tablet 570- 572.
3. O'zbek tilining imlo lug'ati- Toshkent' Fan'1976'.
4. S. Karimov 'O'zbek tilining funksional stilistikasi' Samarqand Samdu nashri 2010 25-b.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, oktyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 40 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 2-oktyabr

ISBN 978-9910-8337-0-0

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.